



SINONIM SO‘ZLARNI O‘QITISHDA INNAVOTSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Keldiyeva Nafosat

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti
universitetining 3- kurs talabasi*

keldiyevanafosat@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5 sinf o‘quvchilariga sinonim so‘zlarni samarali o‘qitish usullari haqida. Sinonim so‘zlarni o‘qitish jaroyonida innavotsion yondashuvlarning ahamiyati va samaradorligi, sinfda sinonim so‘zlarni o‘rgatishda texnologiyalar orqali o‘quvchilarni faol ishtirokini ta’minlash.

Abstract: The article discusses the methods of effective teaching of synonyms to 5th grade students of general secondary schools. The importance and effectiveness of innovative approaches in the process of teaching synonyms, ensuring the active participation of students through technologies in teaching synonyms in the classroom.

Keywords: synonyms, innovative, teaching methods, technologies, multimedia tools, video, integration through music, speech enrichment.

Kalit so‘zlar: sinonimlar, innavotsion, o‘qitish usullari, texnologiyalar, multemidea vositalari, video, musiqa orqali integratsiya, nutqni boyitish.



Hozirgi kunda ta'lim tizimida texnologiyalarni qo'llashga asoslangan yondashuvlarga intilmoqda. Sinonim so'zlarni o'qitish jarayonida innavatsion yondashuvlar ta'limning samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi va o'quvchilarni dars davomida faol ishtirok etishni ta'minlaydi.

''Ona tili'' darslarida uzundan-uzoq,murakkab grammatik qoidalarni,''O'zbek adabiyoti''darslarida ijodkor hayotidagi o'tkinchi sana va voqealarni yodlashga majbur qilmasdan,balki ona tilida sof so'zlash o'z fikrini to'g'ri ifodalay olish,mustaqil fikrlash,badiiy san'atidan lazzatlanish,so'zdan zavqlanish ruhida ta'lim bermoq kerak.Ona tili va adabiyot o'qitishdan kutilgan pirovard natija -shu![A.G'ulomov ''Ona tili o'qitish metodikasi''2012:5].

Hozirgi kunda internet sahifalarida yuzdan ortiq onlayn platformali o'yinlar,videodarslar va audio matnlar mavjud,ularni kutilmagan vaqtda yangicha texnologiyalardan foydalanish,o'quvchilar uchun yanglik hisoblanadi.Masalan,sinonimlarni o'rgatishda '' QUIZLET'', ''KAHOOT''kabi onlayn platformalar orqali o'yinlar tashkil etish yoki ''MUSIQA'' orqali qiziqarli o'yinlar katta ro'l o'ynaydi.

'' KAHOOT'' o' yinida o'qituvchi tomonidan o'quvchilarning yoshiga,aql -salohiyatiga mos 10-15 ta sinonimga oid test tuzib kelib,elektron doskada qo'yib beradi.O'yin boshlanishidan oldin o'qituvchi o'yinning shartlari,tartib -intizomi haqida tushuntirib o'tadi. Bu o'yini yordamida berilgan test savollari o'quvchilarning eslab qolish qobiliyatini oshiradi.Ayniqsa,bir so'zga mos sinonimni topish,noto'g'ri javoblarni tahlil qilish orqali o'quvchilarning bilimlari chuqurlashtiradi.''KAHOOT'' o'yinida har bir savol uchun vaqt cheklovi bor.Bu o'quvchilarda tez qaror qabul qilish,mantiqiy fikrlash va e'tiborni jamlash ko'nikmasini rivojlantiradi. U o'yin orqali dars jarayonini jonlantirish,o'quvchilarni faol ishtirok etishiga jalb qiladi.An'naviy yondashuvlarda sinonimlarni yodlash,ko'p hollarda zerikarli va samarasiz bo'lishi



mumkin. Shu boisdan, o'quvchilarning darsga qiziqishini oshirish va ularning bilimini mustahkamlashda zamonaviy raqamli texnologiyalardan, xususan, "KAHOOT" platformasidan foydalanish samarali hisoblanadi. Tarjibalar asosida shuni ko'rish mumkinki, o'yin asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarda yuqori motivatsiya uyg'otadi, bilimni mustahkamlashga yordam beradi.

Musika orqali sinonim so'zlarni o'rgatish nafaqat o'quvchilarga yangi so'zlarni bilib oladi, diqqatini jalb qilishda muhim ahamiyat kasb etadi va ona til darsini musiqa darsi bilan integratsiya jaroyonini amalga oshiradi. Misol uchun honanda Farhod Saidovning qalamiga mansub "GULSAN, GO'ZALSAN" nomli qo'shig'i o'qituvchi tomonidan kompyuter yoki televizorda o'quvchilarga qo'yib beradi. Musika qo'yib berishdan, avval, qo'shichni diqqat bilan tinglashni, unda qatnashgan sinonim so'zlarni daftariga yozib, sinonimlarning ma'nolarni topish topshirig'i beriladi. Masalan nozik-nasif, dilbar, o'jar-qaysar, go'zal-chiroyli.

Rivojlangan davlatlardagi ilmiy tadqiqotlarni kuzatish mobaynida ESL o'qish va tinglash ta'limida filmlar yoki videolardan foydalanish afzalligi fikrlar mavjud. Multimediali o'qitishda visual va audio usullaridan foydalanish ta'limda samarali va foydalidir. Bundan tashqari, CTML pirinsipida o'quvchilarning video va audio materiallarni integratsiya qilish orqali o'qitishda ko'proq qiziqish bildirishi aniqlandi. CTML ko'rsatilgan visual va audio usullari o'quvchilarning multisensorli ta'lim bilimlarini faollashtiradi. CTML nazariyasiga qo'yilgan, yaxshi mo'ljallangan multimedia dars rejalari taqdim etish bilimni muvaffaqiyatli o'rganishga yordam berish kalitidir [Guohua Fu, 2021:20-21].

Xulosa qilib, sinonim so'zlarni o'qitishda onlayn o'yinli platformalardan, videolar yoki audiolardan foydalanish samarali va yutuqlidir. Darslarda innavotsion yondashuvlardan foydalanish zamonaviy ta'limning ajralmas qismiga aylanib qoldi. Innovatsion yondashuvlar o'quv jaroyonining sifatini



oshirish, o'quvchilarning intellektual salohiyatini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Adabiyotlar:

1. G'ulomov A va boshqalar. Ona tili o'qitish metodikasi. -T.: Fan va texnologiya, 2012.

2. Hojiyev A. O'zbek tili sinonimlarning izohli lug'ati to'plami. -T.: Fan va texnologiya, 2016

3. Guohua Fu. The Effectiveness of using multimedia for teaching phrasal verbs in community-college ESI classes-San Francisco. 2021-P. 20-21.